


## IX. ISTE'MOL BOZORI


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 21 004,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan 11,7 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 4 110,8 mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 16 893,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 40,4 %, Urgut tumani 9,8 %, Kattaqo'rg'on shahri 6,0 %, Pastdarg'om tumani 5,2 %, Samarqand tumani 4,9 %, Bulung'ur tumani 4,4 %, Kattaqo'rg'on tumani 4,2 %, Payariq tumani 3,8 %, Jomboy tumani 3,7 % va Ishtixon tumani 3,6 %, chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, % da



Viloyatda aholi jon boshiga 2021- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 264,9 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,5 % ga ko'paydi. Asosan aholi jon boshiga eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (15 253,1 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (13 897,4 ming so'm) va Bulung'ur tumanlarida (4 876,9 ming so'm) kuzatildi.


### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Hajmi, ming so'mda	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>5 264,9</b>	<b>109,5</b>
Samarqand sh.	15 253,1	106,8

Kattaqo'rg'on sh.	13 897,4	109,6
tumanlar:		
Bulung'ur	4 876,9	109,9
Jomboy	4 368,2	116,3
Ishtixon	2 871,0	107,6
Kattaqo'rg'on	3 126,2	115,3
Narpay	2 930,6	110,0
Nurobod	2 697,3	112,3
Oqdaryo	3 355,0	106,8
Payariq	3 122,0	113,6
Pastdarg'om	2 980,3	106,4
Paxtachi	2 581,7	112,4
Samarqand	3 965,1	120,2
Urgut	3 926,8	112,1
Toyloq	2 889,7	112,7
Qo'shrabot	2 563,8	114,8

Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Samarqand, Jomboy, Kattaqo'rg'on va Qo'shrabot tumanlarida qayd etildi.


**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, % da**



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik savdo korxonalarining hajmi 4 110,8 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 19,6 foizini tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 16 893,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 12,1 % ga koʻpaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,4 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da




### Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari boʻyicha chakana tovar aylanmasi

	Hajmi, mlrd. soʻm	2020- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>21 004,2</b>	<b>111,7</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>			
davlat mulki	1,4	53,2	0,01
nodavlat mulki	21 002,8	111,7	99,99

## 2021- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>2020- yilga nisbatan, da</i> %	<i>Yakunga nisbatan, da</i> %
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	<b>21 004,2</b>	<b>111,7</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Yirik korxonalar	4 110,8	110,2	19,6
Kichik va mikrofirmalar	6042,0	111,3	28,8
Norasmiy sektor	10 851,4	112,5	51,6

Chakana savdo tarkibi, % da



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 528,0 mlrd. so‘mni yoki 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 133,2 foizni tashkil etdi.